

# NORDIC LIFE | 2024



**6<sup>SON</sup>**

Yanvar  
Fevral • Mart

**1**

Muloqotlar

Choraklik hisobotlar

**2**

Muzokaralar

Jaryonlar tahlili

**3**

Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili



# **NORDIK HAYOTI**

# **NORDIC LIFE**

# NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

**Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

**Nashrga tayyorlaganlar:**  
M.Isaqova, R.Shodmonov

*Xalqaro Nordik universiteti media markazida tayyorlangan “Nordic life”ning 6-faslida oliygohning 2024-yil yanvar, fevral, mart oylaridagi faoliyati aks ettirilgan.*

*Ushbu sonda Nordikning ta’lim va fan sohasidagi yutuqlari, professor-o’qituvchilar va talabalarning ilmiy rivojlanishlari uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari aks ettirilgan. Nordikning yana bir chorakdagi salmoqli odimlari, yoshlar va jamiyatimiz hayotidagi ijobiliy ahamiyati, talabalarning akademik va noakademik hayoti – bularning barchasi ushbu broshyurada jamlangan.*



**INTILGANGA TOLE YOR!**

**WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!**



# KIRISH

“Nordic life”ning navbatdagi faslini e’tiboringizga havola qilayotganimizdan mammunmiz. Sahifalarimiz orqali Nordikning ta’lim va fan sohasidagi muvaffaqiyat va yutuqlari, professor-o’qituvchilar va talabalarning ilmiy rivojlanishlari yo’lida tashkil etilgan treninglar, master-klass saboqlari, besh muhim tashabbus doirasida o’tkazilgan ma’naviy-ma'rifiy, musiqiy, intellektual, kitobxonlik va sport tadbirlari, ko’chma dars va qiziqarli sayohatlar tafsilotlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo’lasiz.

Nordikning joriy yilning birinchi choragidagi faoliyatiga nazar tashlasak, qator nufuzli ilm-fan, ta’lim va biznes tashkilotlari bilan yangidan hamkorlik aloqalari yo’lga qo'yildi, mavjud hamkorliklar kengayib, yangi bosqichga ko’tarildi. Italiya, Vengriya, AQSh kabi davlatlarning oliy ta’lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikda yaxshi natijalarga erishildi. Amerikaga ta’lim safari, Finlandiyada stajirovka uyuşhtirilib, tizim ravnaqi uchun muhim ko’nikma va tajribalarga ega bo’lindi. Universitetda O’zbekiston-Estoniya xalqaro biznes forumi o’tkazilib, har ikki mamlakat biznes rahbarlarini kelajak maqsadlar yo’lida birlashtiruvchi platforma bo’lib xizmat qildi.

Shuningdek, Nordik yurtimiz yoshlarining manfaatlari yo’lida salmoqli, ibratli tashabbuslarni amalga oshirdi.

Oliygohimiz huzuridagi Kengash va Ilmiy kengash faoliyati talabalar, yosh tadqiqotchi va olimlarga har jihatdan tayanch, yo’lboshchi vazifasini o’tadi. Nordik shuningdek, dolzarb mavzuda respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga mezbonlik qildi.

**Mazkur faslimizda turli haftaliklar, muhim sanalarga bag’ishlangan anjumanlar ham keng yoritilgan. Bularning barchasi bilan broshyuramiz orqali kengroq tanishishni tavsiya etamiz.**

**Sherzod Mustafakulov**

Xalqaro Nordik universiteti rektori,  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

# MUNDARIJA

## Kirish

3

Raqamli ta'lif texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori – Nordikda	4
Qishki sayohat	5
Yigit omon bo'lsa, qo'rg'on salomat...	5
Nordik professor-o'qituvchilariga yangi adabiyotlar nashri uchun Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan guvohnomalar taqdim etildi	6
Nordik yosh olimlari bilan uchrashuv o'tkazildi	6
Nordik ko'magida O'zDJTU professor-o'qituvchilari Finlandiyada stajirovka o'tadilar	7
Fin pedagoglaridan mahorat darslari	7
Nordik Talabalar Kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi	8
"Puankare" asari - kitobsevarlar muhokamasida	8
Kutubxonamiz boyitildi	8
Talabalarimiz Respublika bolalar kutubxonasida	9
Yakuniy imtihon haftaligida	9
Zakovat" klubida talabalar ligasi qizg'in	10
Rektor va talabalar uchrashuvi samimiy ruhda o'tdi	10
Bolalarni sevish, xotirjamlik, sabrlilik...	10
Ijodiy uchrashuvda	11
Markaziy Osiyodagi eng qadimiy muzeylardan birida	11
Universitetda bolajonlar uchun ham sharoit hozirlangan	11
Ma'rifiy suhbat	12
Hamkorlik yo'nalishlari belgilandi	12
Master-klass darslarida	12
XNU vakili Istanbul shahrida xalqaro konferensiyada	13
"Ilmlii ayol - jamiyat ko'zgusi" haftaligida	13
Samimiy tashakkur, Emil Jäntti!	13
Ikki beباho dahoning noyob qirralari yodga olindi	14
Rektor va talabalar uchrashuvi	14
Afg'onistonlik talabalar bilan uchrashuv	15
Ilmiy tadqiqot ishlari: loyiҳalar tayyorlash, psixologik tadqiqotlar va ta'lif tendensiyalari	15

# MUNDARIJA

XNU huzuridagi ilmiy kengashda ilmiy seminar o'tkazildi	15
Amerikalik professordan master-klass	16
Nordik va Scientech IT Academy rahbariyati o'rtasida uchrashuv o'tkazildi	16
Talabalarimiz ijrolari olqishlanmoqda	16
Trento university bilan talaba almashiladi	17
Nordikka Vengriyadan muhim tashrif	17
AQSHning Cintana Education talim kompaniyasi vakili bilan uchrashuv bo'lib o'tdi	18
Universitet Kengashining 6-son yig'ilishi o'tkazildi	18
"O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish yo'nalishlari va istiqbollari - YOSHLAR NIGOHIDA"	19
Nordik universiteti va "M-Sodiq school" maktabi rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi	20
"Work and travel" dasturi uchun suhbat o'tkazildi	20
"QIZLAR DAVRASI"DA	20
Nordikda bayram!	21
O'zbekiston IT hamjamiyati rahbari - talabalar huzurida	21
Estoniya ishbilarmon delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi	22
XNUda sport tadbirlari tashkil etildi	24
Sodiq School maktabida qiziqarli uchrashuv o'tkazildi	24
"Sodiq School" maktabida Nordik professor-o'qituvchilari tomonidan "Stress management" mavzusida amaliy trening o'tkazildi	24
Xushxabar!	25
Challenge: Tanaffusda bellashamiz!	25
Janubiy Koreyaning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik o'rnatildi	25
"Sehrli diyor"dagi unutilmas muloqotlar	26
Yo ilmli bo'ling yoki ilmga tayanib ish tutadigan...	26
O'zbekiston - Estoniya: tizimli aloqalarning yangi bosqichi	26

## Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori – Nordikda |4-yan.|

### 2024-yilda professor-o'qituvchilar va talabalarni qanday imkoniyatlar kutmoqda?

Nordikga Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori Alisher Abdullayev tashrif buyurib, professor-o'qituvchilarga o'z ilm va tajribalarini yetkazdi.

-  HEMIS universal platformasi elektron hukumat doirasida barcha vazirlik va tashkilotlar tizimlariga integratsiya qilindi.
-  Tizimga professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyatlariga doir yangi funksiyalar qo'shish ustida ishlanmoqda
-  Xitoy, Germaniya va boshqa xorijiy davlatlari o'rganilib, yangi modullar yaratilmoqda.



Universal karta bilan talabalar kutubxonalar, o'quv zallari, madaniy va boshqa ob'yektlarga kirish, xalqaro va mahalliy to'lovlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish va savdo muassasalarining keshbek hamda chegirmalaridan foydalanish kabi qator imkoniyatlarga ega bo'ladilar.



Talabalarga bankka bormay ta'lim kreditini onlayn olish imkoniyati yaratiladi.

HEMISda talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning ixtiro va ishlanmalari uchun market place mavjud bo'ldi.

Diplom ma'lumotlari raqamlashtiriladi. Talabalar HEMISda o'z avatarlarini shakllantirishlari mumkin bo'ldi. Bu ish beruvchilarni jalb etishda ham qo'l keladi.

## **Qishki sayohat |6-yan.|**

Qish fasli ochiq havo, betakror manzaralar, qorli izbosmagan qiyaliklarda sayr qilish uchun ayni qulay vaqt!

Nordikning qadrli 100 kishidan iborat jamoasi uchun ana shunday qulay fursatlarda Amirsoy tog'-kurortiga sayohat uyushtirildi.

- \* Qorbo'ron, arqon tortish va to'p o'yinlari;
- \* Tyubing, snoubord va chang'i uchish kabi harakatchan, qiziqarli mashg'ulotlar...
- \* Xalqaro Nordik universiteti jamoasi Amirsoy tog'-kurortida maroqli, noyob taassurotlarga boy sayohatda bo'ldilar.

Biz yangi 2024-yilni ana shunday maroqli hordiq, yangi taassurotlar, yangi kuch va yangicha qarashlar bilan boshlab oldik!



## **Yigit omon bo'lisa, qo'rg'on salomat... |12-yan.|**

*Qutlug' sana - Vatan himoyachilari kuni arafasida universitet jamoasidagi faxrli va qadrli erkak-xodimlar uchun bayram tadbiri tashkil etildi.*

*Anjumanda yurtimizda qat'iyatli, mard, jasur va oriyatli yigitlar bor ekan qo'rg'onimiz tinch bo'lishi e'tirof etildi. Vatanimizning muhtaram posbonlari - erkaklarni ulug'lovchi she'rlar, qo'shiqlar ijro qilindi, videotabriklar yo'llandi.*

*Bayram tadbiri hazilomuz, tabassum uyg'otuvchi, ayyom egalari uchun kutilgan va kutilmagan savol-javoblar, tabrik va tilaklar bilan esda qolarli o'tdi.*



**Nordik professor-o'qituvchilariga yangi adabiyotlar nashri uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan guvohnomalar taqdim etildi [9-yan.]**



DARSLIK

## MIKROIQTISODIYOT

B.SALIMOV



DARSLIK

## MUTAXASSISLIK FANIGA KIRISH

O. QO'YSINOV,  
SH. ABDUFATAYEV,  
N. BOYMATOV



DARSLIK

## MUSIQA O'QITISH METODIKASI

Q.PANJIYEV



DARSLIK

## O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI

Q.PANJIYEV



O'QUV  
QO'LLANMA

## AMALIY EKONOMETRIKA

X.SABIROV,  
N.MURADULLAYEV



O'QUV  
QO'LLANMA

## EKONOMETRIKA ASOSLARI

SH.MUSTAFAKULOV,  
X.SABIROV



O'QUV  
QO'LLANMA

## XALQARO MOLIYA

SH.MUSTAFAKULOV,  
Q.ISAYEV, A.TO'QLIYEV,  
A.ABDUQAYUMOV



O'QUV  
QO'LLANMA

## UMUMIY MATEMATIKA

X.SABIROV,  
X.XUDOYBERDIYEV

**Nordik yosh olimlari bilan uchrashuv o'tkazildi [15-yan.]**

**Nordik doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarining ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida uchrashuv o'tkazildi.**

Yosh olimlarga doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash, mutaxassislikni chuqur o'rganish va izlanishlar olib borishga oid zarur tavsiyalar berildi. Ular o'qishning birinchi yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, har uch oyda hisobotlar taqdim etish mezonlari bilan tanishdilar.



## Nordik ko'magida O'zDJTU professor-o'qituvchilari Finlandiyada stajirovka o'tadilar |16-yan.|



Xalqaro Nordik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **Odil Qo'yosinov** boshchiligidagi delegatsiyaning Finlandiyaga ta'lif safari uyuşdırıldı.

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti professor-o'qituvchilari uchun xorijda stajirovka oldidan seminar-trening o'tkazilib, delegatsiya rahbari tomonidan zarur yo'riqnomalar berildi.

Fin tili o'qituvchisi **Johanna Järväläinen** seminar ishtirokchilariga Finlandiya ta'lif tizimi, o'qitish metodikasi bo'yicha keng ma'lumotlar berdi.

## Fin pedagoglaridan mahorat darslari |23-yan.|

Finlandiya O'zbekiston ta'lif delegatsiyasi chet tillarini o'qitish tajribalarini keng o'rgandilar.

**Jyväskylä universiteti** Til va kommunikatsiyalarni o'rganish bo'limining ta'lif bo'yicha eksperti **Katya Mäntyla** boshchiligidagi universitetda ingliz, nemis, fransuz kabi chet tillarining o'qitilish metodlari, Yevropa kompetensiyalari bilan tanishildi.

Delegatsiya a'zolari Finlandiya ta'lif ekspertlarining mutaxassislar tayyorlash tajribalari, ta'lif sohasida xalqaro miqyosda tan olingan muvaffaqiyatlarga erishishdagi asosiy jihatlarni ochib beruvchi ma'ruzalarini tingladilar, amaliy pedagogik mahorat darslarida ishtirok etdilar.

Nordik va O'zDJTU prorektorlari Stokgolmda O'zbekistonning Shvetsiyadagi elchisi **Nodir G'aniyev** bilan samimi suhbatda bo'ldilar.



## Nordik Talabalar Kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi |18-yan.|

Nordik talabalari ishtirokida ularning hayotiga oid eng muhim masalalar muhokama qilindi.

**Students' Union** a'zolari safini kengaytirish, talabalar klublari faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, noakademik hayotni mazmunli va samarali o'tkazishda talabalar faolligini oshirish borasida fikr almashildi. Talabalarga Kengashning maqsad va vazifalari yetkazilib, ularning ijrosiga mas'ul yetakchilar biriktirildi.

Eng faol va iqtidorli talabalarning ota-onalariga universitet rahbariyatining minnadtorchilik xatlari topshirildi.



## "Puankare" asari - kitobsevarlar muhokamasida |19-yan.|



Bu asar qahramonini maqsad yo'lida to'siqlarni yengib o'tish va odamiylik cho'qqisini zabt etishga undovchi, vijdon ramzi deb atasak bo'ladi. Asar ilm yo'lidagi insonlarga shaxsiy hayotida ham ilmni tushunadigan inson kerakligining isboti hamdir.

"Puankare" asari universitet jamoasi va talabalar tomonidan qiziqish bilan o'qildi. Universitet Xotin-qizlar Kengashi tashabbusi bilan o'tkazilgan kitobsevarlar ishtirokida tadbirda keng muhokama qilindi.

Tadbir davomida Nordik Axborot-resurs markaziga yangi kelgan kitoblar ko'rgazmasi ham o'tkazildi.

## Kutubxonamiz boyitildi

Nordik kutubxonasi 140 nomdagi 670 ta yangi zamonaviy, ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar bilan boyitildi.



## Talabalarimiz Respublika bolalar kutubxonasida |20-yan.|

Respublika bolalar kutubxonasi Toshkent shahri markazidagi tarixiy binoda joylashgan zamonaviy va ko'p tarmoqli jamoat maskanidir.

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi talabalar Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi **Aziza Muratova** boshchiligidagi ushbu kutubxona atmosferasidan bahramand bo'ldilar.

Talabalar kutubxonanining keng kitob fondi, to'garaklar, bolalar va o'smirlarni ma'rifiy rivojlantirish uchun imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi afzal jihatlari bilan yaqindan tanishdilar.

### TALABALARIMIZ RESPUBLIKA BOLALAR KUTUBXONASINING AJOYIB ATMOSFERASIDA



## Yakuniy imtihon haftaligida |22-yan.|

Nordikning har ikki o'quv binosida sirtqi ta'lif shaklida tahsil olayotgan talabalar kutib olindilar.

Rektor va talabalar muloqoti bo'lib o'tdi. Talabalarning o'qish jarayonlari, o'qituvchi va tyutorlar haqidagi fikr-mulohazalari, muammolari o'rganildi va zarur tavsiyalar berildi. Shundan so'ng ular yakuniy nazorat imtihoniga yo'naltirildilar.

Nordikning 2-o'quv binosida ham sirtqi ta'lif shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun bir semestr davomida o'tilgan fanlardan yakuniy imtihonlar tashkil etildi.

Dastlab talabalar bilan uchrashuv o'tkazilib, baholash tizimi, topshiriqlarni topshirishga qo'yiladigan talablar borasida muloqot olib borildi. Talabalarni qiziqtirgan savollarga javoblar berildi.



## "Zakovat" klubida talabalar ligasi qizg'in |24-yan.|

Ushbu musobaqada jamoalar o'yinchilari turdan-turga intellektual charxlanib bordilar. 8-tur natijalariga ko'ra "Aristokratlar" va "Paparimskiy" jamoalari oldinga chiqib oldilar.



## Rektor va talabalar uchrashuvi samimiy ruhda o'tdi |24-yan.|



Nordik rektori **Sherzod Mustafakulov** Musiqa ta'limi yo'nalishi sirtqi ta'lim talabalari bilan ochiq muloqotda bo'ldi.

Respublikamizning turli hududlarida musiqa sohasida mehnat faoliyatini olib borayotgan va shu bilan birga oliy ta'lim olayotgan musiqashunoslar bir ovozdan universitet ustozlar jamoasiga sifatli ta'lim uchun minnatdorchilik izhor etdilar.

## Bolalarni sevish, xotirjamlik, sabrlilik... |25-yan.|

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi talabalarida o'z kasblariga xos shunday xususiyatlar shakllantirilmoqda.

Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi Zulfizar Baxadirova tomonidan Yakkasaroy tumanidagi 25-ixtisoslashtirilgan mакtabda ko'chma dars tashkil etildi.

Talabalarga logoped-ustozlarning turli tashxislar asosida alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion yordam mashg'ulotlarini kuzatish imkoniyati yaratildi. Talabalar o'z tanlagan sohalariga yanada qiziqishlari ortganini e'tirof etdilar.



## Ijodiy uchrashuvda | 26-yan.|

Talabalarimiz Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir va tarjimon Tursun Alining "Sohibjamol daraxt" nomli she'riy to'plami taqdimotida ishtirok etdilar.

Kitobda shoirning so'nggi yillardagi sochmalari, tarjimalari jamlangan bo'lib, shoirning rango-rang ruhiy olamiga safar qilish mumkin. Ijodiy uchrashuvda Qozoqboy Yo'ldoshev, Suvon Melilar Tursun Alining qator she'rlarini sharhlab berdilar.

Talabalarimiz taniqli shoirlar, adabiyotshunos-olim, munaqqidlar suhbatidan babra oldilar.



## Markaziy Osiyodagi eng qadimiy muzeylardan birida | 26-yan.|



Talabalar uchun Tabiiy fanlarning nazariy asoslari fanidan amaliy mashg'ulot tabiat mo'jizalariga to'la, 400 mingdan ortiq materiallar, noyob ekponatlar saqlanuvchi O'zbekiston davlat tabiat muzeyida o'tkazildi.

Ekskursiyada mutaxassislar bilan suhbatlarda hayvonot va o'simliklar dunyosi, qadimiy ekspozitsiyalar haqida tarixiy ma'lumotlar olindi.

## Universitetda bolajonlar uchun ham sharoit hozirlangan

Ona qayerda bo'lmasin ko'ngli albatta bolasida bo'ladi. Shu bois talaba-onalarimizga go'dak farzandlarini o'zları bilan olib kelishlari, yakuniy imtihonlarini xotirjam topshirib olishlari uchun Nordikda bolalar xonasi tashkil etilgan.

Bolakaylar - izzatdalar!



## Ma'rifiy suhbat | 30-yan.|

Dunyoviylik nima va O'zbekiston uchun nega muhim?

Boshqaruv ma'muriyatining diniy pozitsiyalarga nisbatan neytralligi va ajratilganligi zamirida nimalar ko'zlanadi?

Nordikda tashkil etilgan "**Din va dunyoviylik**" mavzusidagi ma'rifiy tadbirda talabalar bugungi kundagi dolzarb masalalar bo'yicha bilim va ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Respublika Din ishlari bo'yicha qo'mita mutaxassisasi **Anvar Abdullayev** O'zbekiston jamiyatni zehniyatida asoratlari saqlanib qolgan tajovuzkor mafkuralar borasida ko'nikmalar berdi va yoshlarning har jihatdan ogohligini oshirdi.



## Hamkorlik yo'nalishlari belgilandi | 31-yan.|



Xalqaro Nordik universiteti va Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'rtasida qator istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

Nordikda o'tkazilgan uchrashuvda pedagogika, andragogika, ilm-fan, tadqiqot va innovatsiya sohalarida kadrlar tayyorlash, ilmiy-metodik resurslar yaratish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida fikr-mulohazalar almashildi.

Ta'lim sohasidagi istiqbolli loyihalarda hamkorlikda ishtiroy etishga kelishildi.

## Master-klass darslarida | 31-yan.|

Nordik talabalari uchun respublikamizdagi pedagogika oly ta'lim muassasalarining Musiqa ta'limi kafedralari professor-o'qituvchilari ishtirokida "Ustoz saboqlari" master-klass darslari tashkil etildi.

Talabalar respublikaning tajribali ustozlaridan yangi metodlarga asoslangan saboqlar olishga muvaffaq bo'ldilar.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar musiqa ta'limi yo'nalishidagi yangilik va ijobjiy ishlar bo'yicha o'zaro tajribalar almashdilar.



## XNU vakili Istanbul shahrida xalqaro konferensiyada |1-fev.|

Turkiyaning Istanbul shahrida "MARKAZIY OSIYODA HUQUQIY MADANIYAT VA BIZNES MUHITI" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Shvetsiyaning Lund universiteti va Yevropa Komissiyasi hamkorligidagi loyiha doirasida o'tkazilgan konferensiyada o'nlab nufuzli oliygochlар qatorida Nordikning Foundation maktabi menejeri Abdurauf Tolibov ham ishtirok etdi.



## "Ilmi ayol - jamiyat ko'zgusi" haftaligida |5-fev.|

Nordik Axborot-resurs markazi va Xotinqizlar kengashi tashabbusi bilan talaba-kitobxonlar ishtirokida o'zbek adabiyotidagi ilk roman - **Abdulla Qodiriy** qalamiga mansub "**O'tkan kunlar**" kitobi muhokama qilindi.

Talabalar asar orqali murakkab tarixiy hodisalar, hokimiyat uchun kurashlar fonida xalq hayoti, o'zbek ayollarining taqdirini kuzatib, xulosalarini bayon qildilar.

Kitobxonlik tadbirida she'rlar o'qildi, raqslar ijro etildi va asar asosida sahna ko'rinishlari namoyish qilindi.



## Samimi tashakkur, Emil Jäntti! |6-fev.|



Xalqaro Nordik universitetida xorijiy o'qituvchi, Finlandiyalik mutaxassis **Emil Jäntti** mehnat faoliyatini samarali olib borib, o'z bilimlarini talabalarimiz bilan bo'lishdi.

U ayni paytda ishini muvaffaqiyatli va sidqidildan ado etib, Finlandiyaga qaytmoqda.

Universitetimiz rahbariyati tomonidan Emil Jänttiga samimi minnatdorchilik bildirildi va Sertifikat taqdim etildi.

## Ikki bebahoh dahoning noyob qirralari yodga olindi |12-fev.|

**Nordikda o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ikki buyuk siymo - Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi keng nishonlandi.**

**Sherzod MUSTAFAKULOV,  
Nordik rektori, professor**

- Buyuk mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning she'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Yosh shoir iste'dodiga ustozlari Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiylar ham yuksak baho bergenlar.

Navoiy yozgan she'r va g'azallarining miqdoriga ko'ra peshqadam bo'lgan. Sharqning barcha janrlarida ijod qilgan. Ayniqsa, uning asarlarida fantastika janri xususiyatlari mujassamligini e'tirof etish joiz. Uning dostonlariidagi fantastik tasvirlar tasodifiy emas, chunki ular raqamli asrimizda amalda qo'llanilmoqda...

Navoiy va Bobur hayoti hamda ijodini o'rganish orqali chinakam inson hayoti qanday bo'lishi kerakligi haqida tasavvurimiz boyib boraveradi...

Adabiy anjumanda buyuk daholar haqida ma'ruzalar, g'azallar tinglandi. Kuy-ko'shiqlar ijro etildi. XNU magistratura talabalarining chiqishlari tomosha qilindi.

Ayniqsa, el suygan aktrisa, O'zbekiston Xalq artisti Zuhra Ashurova, "Nihol" mukofoti sovrindori Ilyosjon Arabov, xoreografiya akademiyasi ansambl va qator hamkor oliygohlar ustozlarining tashrifi tadbir ishtirokchilarini xushnud qildi.

**Bori elg'a yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q...**

**Bobur Mirzo**



## Rektor va talabalar uchrashuvi |14-fev.|



XNU rektorining Maktabgacha ta'lif yo'nalishi sirtqi ta'lif talabalari bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda tarbiyachi-talabalarimizning universitetda olayotgan bilimlari va pedagogik mahoratlari asosida maktabgacha ta'lif jarayonlariga yangicha mazmun-mohiyat, yangi o'zgarishlar olib kirishlariga ishonch bildirildi.

Talabalarning el farzandlariga ta'lif-tarbiya berishdek fidoyilik va jonkuyarlik talab etuvchi kasblariga mas'uliyatlarini yanada oshirishga e'tibor qaratildi.

## Afg'onistonlik talabalar bilan uchrashuv |16-fev.|

### Nordikda xorijlik, xususan afg'onistonlik talabalar ham ta'lim olmoqdalar.

Nordik Akademik ishlar bo'yicha prorektori, Xalqaro aloqalar departamenti mutaxassisasi, dekan va rektor maslahatchisi afg'on talaba-qizlari bilan uchrashuv o'tkazdilar.

Uchrashuvda talabalar bilan o'quv-akademik va ish faoliyatları bo'yicha suhbat olib borildi. Ularning yurtimizda ta'lim olish va istiqomat qilish, mavjud shart-sharoitlar xususidagi fikrlari tinglandi va zarur yo'l-yo'riqlar berildi.



## Ilmiy tadqiqot ishlari: loyihibar tayyorlash, psixologik tadqiqotlar va ta'lim tendensiyalari |16-fev.|

XNUda AQShning Filodelfiya shahrida faoliyat olib boruvchi "**Future survey inc.**" kompaniyasi prezidenti, psixologiya fanlari doktori (DSc), **professor Abdurashid Turg'unov** spikerligida ilmiy seminar-trening o'tkazildi.

Treningda ishtirokchi professor-o'qituvchilar, tadqiqotchi, doktorant va ilmiy xodimlarga uslubiy yordam berishga e'tibor qaratildi. Davlat ilmiy dasturlari, ilmiy faoliyat va tadqiqot ishlarini amalga oshirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan keng tanishtirildi.



## XNU huzuridagi ilmiy kengashda ilmiy seminar o'tkazildi |17-fev.|

Ilmiy seminar majlisida Nordik mustaqil tadqiqotchisi **Jasurbek Qodirovning 08.00.07 - "Moliya, pul muomalasi va kredit"** ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi muhokama qilindi.

Tadqiqotching "Davlat-xususiy sherikchiligi asosida iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiyaviy salohiyatini oshirish istiqbollari" mavzusida tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini yanada takomillashtirish bo'yicha qator tavsiyalar berildi.

Shuningdek, Samarqand davlat universiteti tayanch **doktoranti Hayotjon Xo'jayorovning "Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirish yo'llari"** mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi keng muhokama qilindi. Kengash raisi va a'zolari tomonidan tadqiqotchilarga zarur tavsiyalar berildi.

## Amerikalik professordan master-klass |17-fev|

Dunyoni o'zgartiruvchi fan - matematika, kombinatorika olamida qanday yangilik va o'zgarishlar yuz bermoqda?

Matematikani o'rganishning qanday afzallikkleri bor?

Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi oldidan barcha ishtirokchilar uchun Rowan universiteti (AQSh) Matematika kafedrasi professori, Amerika matematiklar uyushmasi a'zosi Ik Jae Lee, PhD spikerligida matematikaga oid onlayn master-klass o'tkazildi va yangi tendensiyalar haqida bilimlar berildi.



## Nordik va Scientechn IT Academy rahbariyati o'rtasida uchrashuv o'tkazildi |21-fev|



Uchrashuvda IT-ta'lim sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash ekotizimini yaratish borasida muzokaralar amalga oshirildi.

Axborot texnologiyalari yo'nalishidagi loyihalar, ERP tizimlari, talabalar uchun SAP dasturiy ta'minotini o'rnatuvchi kurslar tashkil etish, xalqaro sertifikatlar olishlari, professional maqsadlariga erishishlariga ko'maklashish va ishga yo'naltirish masalalarida hamkorlik memorandumi imzolandi.

## Talabalarimiz ijrolari olqishlanmoqda |21-fev|

Musiqa ta'limi yo'nalishining iqtidorli talabalari televideniye va turli anjumanlarda musiqiy chiqishlari bilan faollar.

Sh.Mardonov, A.Ibrohimov, L.Chorev va Sh.Mahmudov kabi talabalarimiz "Mahalla" telekanalining "Repertuar" ko'rsatuvida taniqli estrada xonandalari bilan jo'rnavozlikda musiqiy asarlar ijro etdilar.

Shuningdek, talabalarimiz hamkor universitetlarda o'tkazilayotgan anjumanlarda ishtirok etmoqdalar.

Toshkent davlat transport universitetida bo'lib o'tgan "Boburxonlik va Navoiyxonlik" anjumanida M.Suyunboyeva o'zbek va tojik xalq kuyalaridan popuri ijro etib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Tadbirda u O'zbekiston xalq hofizi Xasan Rajabiy e'tirofini ham qozonishga muvaffaq bo'ldi.



## Trento university bilan talaba almashiladi |23-fev.|

Nordik 2023-yilda Italiyaning yetakchi oliygohlaridan biri **Trento universiteti** bilan hamkorlik shartnomasini imzolagan edi.

Shartnoma doirasida o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, qo'shma diplom dasturlari, ilmiy-innovatsion sohada qo'shma loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Trento bilan muzokara o'tkazilib, mazkur kelishuvni amalga tatbiq etishning ilk qadami sifatida **Trento Universiteti** Nordikning bakalavriat va magistratura bosqichlariga bittadan bir yillik grant ajratganini ma'lum qildi.

Grant doirasida universitet bakalavriat bosqichining bir nafar talabasi "**Iqtisodiyot va menejment**", magistratura bosqichidan bir nafar talaba "**Xalqaro menejment**" yo'naliishida bir yil davomida mutlaqo bepul ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ma'lumot o'rnda, Trento Universiteti dunyoning eng kuchli oliy ta'lif maskanlari ro'yxatida **500 talikdan** o'r'in olgan. **16 mingdan** ziyod talabaga ega.



## Nordikka Vengriyadan muhim tashrif |24-fev.|

Nordikka **Vengriyaning Jon fon Neyman** nomidagi aniq fanlar va innovatsiyalarga ixtisoslashgan ilgor universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Tashrif davomida o'zaro o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, qo'shma diplom dasturlari, ilmiy-innovatsion sohada qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi.



### Muzokaralarda quyidagi kelishuvlarga erishildi:



## AQSHning Cintana Education talim kompaniyasi vakili bilan uchrashuv bo'lib o'tdi |27-fev.|

Nordik rahbariyati va AQShning Cintana Education ta'lrim kompaniyasi vakili prof. dr. **Said Irandoost** o'rtaida muzokara o'tkazildi.

Uchrashuvda bugungi kunda 25 dan ortiq mamlakatda xalqaro universitetlarni o'z ichida jamlagan ushbu ta'lim tashkiloti O'zbekistonda yangi ta'lim dargohini tashkil etishi va bu yo'nalishda Nordik Universiteti bilan hamkorlik qilishni rejalashtirgani ma'lum qilindi.

Xususan, hamkorlikda O'zbekistonda ilg'or tajribalar markazini tashkil qilish va unda xorijiy ta'lim texnologiyalarini o'rganish hamda bilim almashtish mexanizmini joriy etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



## Universitet Kengashining 6-som yig'ilishi o'tkazildi |1-mar.|



Kengash yig'ilishida dastlab tashkiliy masalalar ko'rilib, yangi tayinlovlar ma'lum qilindi va tanishtirildi.

Shundan so'ng kafedralarda o'quv, o'quv-uslubiy hujjatlarni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish yuzasidan mas'ullarning hisobotlari tinglandi.

Kun tartibidagi masala - 2023/2024 o'quv yilining birinchi semestri yakunlari bo'yicha talabalarni fanlar kesimida baholash tahlili va yangi semestrga tayyorgarlik ko'rish masalasi ko'rib chiqildi va muhokama qilindi.

Shuningdek, yig'ilishda eng yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan talaba-yoshlarni rag'batlantirish tizimini joriy etishda Rektor stipendiyasi bo'yicha tanlovlarni tashkil etish yuzasidan mas'ullar hisobot berdilar.

Kengash yig'ilishida Toshkent xalqaro matematika olimpiadasini tashkil etish, normativ hujjatlarini tasdiqlash to'g'risidagi va turli muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Kengashda ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

## "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish yo'nalishlari va istiqbollari - YOSHLAR NIGOHIDA" [2-mar.]

Nordikda oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari vakillari, yosh olimlar va talabalar ishtirokida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Konferensiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamenti qo'mitasi a'zosi Shoxrux Qo'chqarov va "**Taraqqiyot strategiyasi**" markazi yo'nalish rahbari Farrux Hakimovlar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Anjumanda beshta muhim yo'nalishda taqdimot va muhokamalar o'tkazildi.



Ma'ruza va taqdimotlarda "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirishning ahamiyati va istiqbollari, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga keng to'xtaldilar.

Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosati, O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi va aholi salomatligi bilan bog'liq qator dolzarb mavzularda fikrmulohazalar almashdilar.



## **Nordik universiteti va "M-Sodiq school" maktabi rahbariyatlari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi |4-mar.|**

Uchrashuvda yoshlarni ilmiy rivojlantirishni rag'batlantirish va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish borasida fikr va tajriba almashildi.

Universitet rektori va "M-Sodiq school" direktori o'rtasida maktab bitiruvchilariga maxsus dastur asosida tizimli treninglar, olimpiadalar o'tkazish, ularga universitetga kirish uchun kerakli yo'llanma va tavsiyalar berish hamda bilim savyasini chuqurlashtirishga yordam beradigan chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan Memorandum imzolandi.



## **"Work and travel" dasturi uchun suhbat o'tkazildi |5-mar.|**



Suhbat davomida mas'ullar va psixologlardan iborat komissiya a'zolari talabgorlarning akademik ko'rsatkichlari, universitet noakademik hayotidagi ishtiropini o'rgandilar.

Talabalar bilan dasturda qatnashishdan ko'zlayotgan maqsadlari borasida suhbat qurildi. "Work and travel" shartlari, ish va sayohat davrida ularning huquq va majburiyatları tushuntirildi.

## **"QIZLAR DAVRASI" DA |7-mar.|**

Universitetimizning go'zal va lobar talaba-qizlari o'rtasida "Qizlar davrasi" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Bayramona kechgan tadbirda onalar, xotin-qizlarga ehtirom ruhidagi she'rlar, tabrik va tilaklar yangradi. Ishtirokchi qizlar o'zlarining kitobxonlik salohiyatlari, mehmon kutish odoblari, qiziqish va qarashlarini chiroyli tarzda namoyish etib berdilar.

Go'zallik va nafosat bayrami - 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni talaba-qizlarimiz davrasida bahoriy kayfiyatda nishonlandi.



## Nordikda bayram! |7-mar.|



Nordik qadriyatlaridan eng sarasi bu jamoadagi xotin-qizlarning doimo hurmat-e'tiborda, e'zozda ekanligidir.

Bugun 8-mart bayrami arafasida bu qadriyat yana bir bor namoyon bo'ldi. Erkak ustozlar va talabalar tomonidan jamoadagi xotin-qizlar uchun esda qolarli bayram tadbiri tashkil etildi. Bugun bayram egalariga barcha chiroyli va ezgu tilaklar yo'llandi, universitet ravnaqi yo'lidagi mehnatlari e'tirof topdi.

Bayramona bezakli muhit, qiziqarli va kutilmagan shartli o'yinlar, videotabrik va kuy-ko'shiqlar, esdalik sovg'alari, shirinliklar stoli atrofida jamlanish - barcha-barchasi xotin-qizlarimiz chehrasiga tabassum, mehr va jozibador iliqlik bag'ishlay oldi.

## O'zbekiston IT hamjamiyati rahbari - talabalar huzurida |7-mar.|

IT Community rahbari, tadbirkor va topmenejer Shavkat Karimov talabalar bilan shaxsiy o'sishga ko'maklashuvchi master-klass o'tkazdi.

Eng yaxshi mahorat nima? Bu ko'nikmalarga ega bo'lish qobiliyatি.

Hayot har qachongidan ham tez o'zgarmoqda, texnologiyalar rivojlanmoqda, mehnat bozori har qachongidan o'zgarib bormoqda. Bunday vaziyatda sizga nima kerak? Reja, mashq qilish, ularshish, motivatsiya va qidirmoq.

Eng yaxshi vaqt hozir! O'rganishni o'rganing va hamma narsani o'rganing! Go'yo abadiy yashaydigandek o'qing va o'rganganlaringizni amalda qo'llang.

Qizg'in ruhda o'tgan master-klassda talabalar shaxsiy o'sish uchun zarur omillar ketma-keftigi bilan tanishdilar.



## Estoniya ishbilarmon delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi (14-mar.)

Nordik universitetida Estoniya tashqi ishlar vazirligi va Estonia savdo-sanoat palatasi ko'magida "O'zbekiston-Estonia xalqaro biznes forumi" o'tkazildi.

Nordik universiteti boshqaruvi kengashi raisi **Alisher Jo'rayev** moderatorligida o'tgan biznes forumda ikki davlat vazirlik va idoralari, yetakchi eston kompaniyalari, xususan, "**Elvarem OÜ CNC**", "**Good Staff Solution OÜ**", "**Numero Advertising OÜ**", "**PROisolatsioon OÜ**", "**Osaühing Renecta Properties**", "**URETEK Baltic OÜ**", "**Betafish OÜ**", "**AS Morrison Invest**" va "**Creafin Forward OÜ**", "**Group Logistics OÜ**" kabi kompaniyalar direktorlari va mutaxassislar, shuningdek respublikamizning biznes va tadbirkorlik vakillari ishtirok etdilar.

- "O'zbekiston - Estonia xalqaro biznes forumi" yangi global sharoitda har ikki mamlakat biznes rahbarlarini kelajak maqsadlari yo'lida birlashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Forum doirasida yetakchi eston kompaniyalari bilan mahalliy biznes vakillarining B2B muzokaralari tashkil etildi, o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolashlari, kelajakda istiqbolli loyihalar bo'yicha hamkorlik qilishlariga shart-sharoit yaratildi.

Hamkorlikda xorijiy tajribalar va texnologiyalarga asoslangan qo'shma savdo ob'yektlarini yaratish, iqtisodiy sohalarda yuqori malakali kadrlar almashtish kabi qator yo'naliishlarda kooperatsiya aloqalarini o'rnatish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.



- So'nggi yillarda Estonia va O'zbekiston o'rtaqidagi munosabatlarda ijobiy tendesiya kuzatilayotganini ta'kidlash o'rinni. Iqtisodiyot va ta'lim sohalaridagi aloqalar sezilarli darajada faollashdi.

Forum ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik, O'zbekiston va Estonia o'rtaqidagi ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Iqtisodiy imkoniyatlar va sarmoyaviy salohiyat haqida ma'lumot almashtish, nafaqat iqtisodiy, o'qitish va ta'lim sohalarida ham tajriba almashtish bo'yicha hamkorlikka asos bo'ldi.

Biznes forumda Estonia delegatlarining o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan taqdimotlari, takliflari tinglandi. B2B muzokaralari o'tkazildi.

**"URETEK Baltic OÜ"** geotexnik muhandislik kompaniyasi boshqaruvi kengashi a'zosi **Roman Reiner-Latõšev** ilg'or tajribalarini yetkazdi. Tuzilma va infratuzilmalar uchun tejamkor yechimlar yaratish, potensial hamkorlar bilan mahalliy geotexnika bo'limini tashkil etish taklifini ilgari surdi.

**"PROisolatsioon OÜ"** izolyatsiya va qurilish materiallari va loyihalar sotishga ixtisoslashgan kompaniya asoschisi va bosh direktori **Alar Kalmus** o'z faoliyati misolida barqaror eston yechimlari bo'yicha taqdimotni amalga oshirdi. O'zbekistonda ushbu tizimga olib kirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar xususida ma'lumotlar berdi.



## Estoniya ishbilarmon delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi (14-mar.)

Estoniyaning "Osaüning Renecta Properties" kompaniyasi boshqaruv kengashi a'zosi **Maksim Abeikov** o'g'ir sanoat tovarlari, yuklar savdosi va Estoniya portlari orqali yuklar tashish, import va eksportga ko'maklashish bo'yicha o'z xizmatlarini taklif etdi.

"**Numero Advertising OÜ**" ixtisoslashgan reklama agentligi bosh direktori **Vladimir Pomukchinskiy** o'z taqdimotida Yevropa va Osiyo bozorlari o'ttasida hamkorlarni bog'lovchi, brendlар strategiyalari uchun PR va raqamli monetizatsiya masalalariga to'xtaldi.

Shuningdek, "**Creafin Forward OÜ**" vakili **Konstantin Esolainen** forum ishtirokchilarining e'tiborini Yevropa va MDH davlatlari o'ttasida yuqori sifatlari avtomobil transporti, Yevropa va Boltiqbo'yи mamlakatlari bo'ylab import va eksport zanjiri ta'minoti yechimlari bilan bog'liq xizmatlarga qaratdi.



Biznes forum doirasidagi B2B uchrashuvlarida Estoniya davlatining elektron biznes reestri rasmiy portalı - "**Good Staff Solution OÜ**" direktori **Vadym Rakitin** Estoniyada ro'yxatdan o'tgan barcha yuridik shaxslarning ma'lumotlarini yagona muhitda birlashtiruvchi portal haqida ma'lumotlar berdi.

O'zbekistonlik ish beruvchilar bilan hamkorlikka tayyorligini ma'lum qildi. Portal orqali elektron tadbirdorlik reestrida tez va qulay tarzda ro'yxatdan o'tkazish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish masalalariga to'xtaldi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi mas'uli **Abdulaziz Hakimov** xorijiy ishbilarmonlarni O'zbekistonning mehnat resurslari salohiyati, umumiy demografik tendensiyalar, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi bosqichlari va boshqa statistik ma'lumotlar bilan tanishtirdi.

"**Elvarem OÜ**" bosh direktori **Nikita Soroka** mashinasozlik, metall konstruksiyalar va mexanik ishlov berish xizmatlarini taklif etdi. Har ikki davlat ishbilarmon doiralari istiqbolli loyihibalar bo'yicha hamkorlikka kelishdilar.

Biznes forumda ilgari surilgan mavzular, takliflar doirasida muhokamalar bo'lib o'tdi. Forum eston ishbilarmon doira vakillarining mamlakatimizda biznes yuritishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qildi. Xorijiy mehmonlar mamlakatimizdagи soliq va tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash tizimlari va imkoniyatlari bilan qiziqdilar va ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



**Xalqaro universiteti Nordik**  
**O'zbekiston-Estoniya o'rtaida xalqaro hamkorlik, tajribalar almashish, qizg'in muhokama va xulosalar, kelishuvlar uchun platforma vazifasini o'tadi.**

## XNUda sport tadbirlari tashkil etildi |16-mar.|

Stol tennisi bo'yicha musobaqalarda faol ishtirok etgan Shohjahon Axtamov, Jamshid O'razaliyev va Behruz Nigmatullayevlar 1, 2 va 3-o'rnlarni egalladilar.

Shuningdek, talabalar o'rtasida shaxmat-shashka bellashuviga start berildi. G'oliblar mart oyi oxirida taqdirlanadilar.



## Sodiq School maktabida qiziqarli uchrashuv o'tkazildi |20-mar.|



Nordik universiteti Foundation maktabi menejeri **Abdurauf Tolibov** va fin o'qituvchisi **Johanna Järveläinen** Sodiq School maktabida bitiruvchi-o'quvchilar bilan uchrashuv o'tkazdilar.

Yoshlarni top universitetlarga tayyorlovchi ushbu maktabda Nordik faoliyati taqdimot qilindi. Universitet imkoniyatlari, Finlandiya va chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish xususida o'quvchilar bilan qizg'in suhbat yuushtirildi.

Yoshlarni top universitetlarga tayyorlovchi ushbu maktabda XNU faoliyati taqdimot qilindi. Universitet imkoniyatlari, Finlandiya va chet el oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish xususida o'quvchilar bilan qizg'in suhbat yuushtirildi.

## "Sodiq School" maktabida Nordik professor-o'qituvchilari tomonidan "Stress management" mavzusida amaliy trening o'tkazildi |27-mar.|

Mashg'ulotda o'qituvchilarga ishda ruhiy salomatlik, muvozanatli hayot kechirish, stressni boshqarish, ya'ni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha qo'llanmalar berildi. Jamoaning samarali harakat qilish, hayot va mehnatdan zavqlanish hissi oshirildi.

Shuningdek, matematikani raqamlashtirilgan holda xalqaro miqyosda o'rgatuvchi Eduten platformasidan foydalanish bo'yicha trening bo'lib o'tdi.

Unda maktab o'qituvchilariga Edutening xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha boshlig'i Makke Leppänen platformaning imkoniyatlari va yutuqlari haqida kerakli ma'lumotlar berdi.



**Xushxabar! | 27-mar.|**


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Xalqaro Nordik universitetiga №246557 raqamli TASDIQNOMA taqdim etildi.

Endilikda Nordik kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ham ega bo'ldi.

**Challenge: Tanaffusda bellashamiz! | 27-mar.|**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Xalqaro Nordik universitetiga №246557 raqamli TASDIQNOMA taqdim etildi.

Endilikda Nordik kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ham ega bo'ldi.


**Janubiy Koreyaning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik o'rnatildi | 30-mar.|**


Nordik va Janubiy Koreyaning Seul va Ansan shaharlarida joylashgan Hanyang ERICA universitetlari va Gachon universiteti rahbariyatlari o'ttasida o'zaro muzokaralar o'tkazildi.

## "Sehrli diyor"dagi unutilmas muloqotlar



Xalqaro Nordik universiteti xalqaro tajribalarni o'rganish, ta'lim, tadqiqot va tadbirkorlikka asoslangan, ya'ni 4.0 formatdagi universitetlar faoliyati bilan tanishish, o'zaro tajriba almashish, istiqbolli qo'shma dasturlarni birgalikda yo'lga qo'yish maqsadida jahoning taraqqiy topgan davlatlariga safarlar uyushtirmoqda.

**"Xalq so'zi"** gazetasida Nordik delegatsiyasining Nobel mukofotining eng ko'p sovrindorlari yurti, ilg'or o'quv dasturlari, dunyo miqyosidagi tadqiqotlarga asoslangan innovatsiyalari bilan ajralib turuvchi Amerika Qo'shma Shtatlariga ta'lim safari tafsilotlari nashr etildi.

Delegatsiyaga rahbarlik qilgan **Nordik rektori Sherzod Mustafakulovning** maqolasida "sehrli diyor"dagi unutilmas muloqotlar va taassurotlar bilan tanishish mumkin.

## YO IMLI BO'LING YOKI ILMGA TAYANIB ISH TUTADIGAN...

Har bir jamiyat uchun yoshlar kamoli birlamchi masalalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati, ularning sifatli bilim olishi istiqbol uchun muhimdir.

**"Xalq so'zi"** gazetasining bugun, 2-fevral kungi sonida nashr etilgan Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor Sherzod Mustafakulovning maqolasida yoshlarning aqliy rivoji yo'lida ilm ahli, jamiyatimiz a'zolari oldida turgan muhim vazifalar, ilgari surilayotgan ezgu tashabbuslar xususida bayon etilgan.



## O'zbekiston - Estoniya: tizimli aloqalarning yangi bosqichi



**"Xalq so'zi"** gazetasining 30-mart sonida Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor **Sherzod Mustafakulovning** O'zbekiston - Estoniya aloqalariga bag'ishlangan maqolasi nashr etildi.





**Xalqaro Nordik universiteti missiyasi** – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta'lif eksportini oshirishdan iborat!



@nordic\_edu



[www.nordicuniversity.org](http://www.nordicuniversity.org)